

## PROFILAKTIKA INSPEKTORINING TERRORIZM BILAN BOG'LIQ HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASINI TASHKIL ETISH FAOLIYATI

**Tashtemirov Anvar Aliqulovich**

*O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi,*

*Ma'muriy huquq kafedrasi dotsenti.*

*E-mail: anvartoshtemirov05031979@gmail.com.*

**Умаров Алишер Фахриддин о'ғ'ли**

*IIV Akademiyasi 3-o'quv kursi,*

*317 guruh kursanti.*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada profilaktika inspektorining terrorizm bilan bog'liq huquqbuzarliklar profilaktikasini tashkil etish faoliyatining tushunchasi, bugungi kundagi holati va profilaktika inspektorlari tomonidan mazkur faoliyatni amalga oshirishdagi o'ziga xos xususiyatlari, mavjud muammo va kamchiliklar, hamda ushbu muammo va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha takliflar yoritib berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *terrorizm, ekstremizm, jinoyat, huquqbuzarlik, jihod, hujra, diniy ta'lim, jazoga hukm qilingan shaxslar, voyaga yetmagan shaxs, qonunchilik normasi.*

**Аннотация.** *В данной статье раскрывается понятие деятельности инспектора по профилактике в организации профилактики правонарушений, связанных с терроризмом, текущее состояние этой деятельности, а также особенности её реализации профилактическими инспекторами. Освещены существующие проблемы и недостатки в данной сфере, а также предложены рекомендации по их устранению.*

**Ключевые слова:** *терроризм, экстремизм, преступление, правонарушение, джихад, ячейка, религиозное образование, осуждённые лица, несовершеннолетние, норма законодательства.*

**Annotation.** *This article explores the concept of the activities carried out by prevention inspectors in organizing the prevention of terrorism-related offenses, the current state of this work, and the specific features of how it is implemented by prevention inspectors. The article highlights existing problems and shortcomings in this field and offers recommendations for their elimination.*

**Keywords:** *terrorism, extremism, crime, offense, jihad, cell, religious education, convicted persons, minors, legal norm.*

Bugungi zamonaviy dunyoda xavfsizlik va barqarorlikka bo'layotgan tahdidlarning eng xavfli ko'rinishlaridan biri bu terrorizm hisoblanib, uning borgan sari yanada jiddiy tus olayotganligi va kengroq ko'lamga ega bo'lib borishi keng jamoatchilikni

tashvishga solmoqda. Terroristik aktlar orqali ijtimoiy va milliy guruhlar o'rtasida ba'zida esa butun bir mintaqadagi davlatlarning o'zaro ziddiyatiga aylanib, natijada tinch aholining halok bo'lishiga, moddiy va ma'naviy qimmatliklarning vayron bo'lishiga olib kelishi va hattoki, butun boshli xalqlarning, elat va millatlarning genotsidiga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan xatarga aylandi.

Terrorizmga qarshi kurashish borasida dunyoda keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilayotgan bo'lsada, mazkur turdagi jinoyatlar miqdori kamaymayapti. Terrorizmning ko'lam va uning davlatlararo xususiyati unga qarshi harakatning xalqaro tizimini takomillashtirishni, turli davlatlarning rivojlanish yo'lidagi maqsadlarini eng yuqori darajada muvofiqlashtirishni va terrorizmga qarshi kurashishda xalqaro tashkilotlar bilan uzviy hamkorlikdagi faoliyat samaradorigi ta'minlanishini zarurat qilib qo'ydi.

Shu sababli bugungi kunda terrorizm bilan bog'liq jinoyatlarga qarshi kurashishning qonunchilik va jinoiy-huquqiy asoslarini takomillashtirishga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda, shuningdek ushbu yo'nalishda mavjud milliy qonunchilik normalarini xalqaro qonunchilik normalariga moslashtirish, uni samardorlik faoliyatini yanada oshirish va takomillashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda dunyoning ayrim mintaqalarida tobora keskinlashib borayotgan qonli mojaro va ziddiyatlar, terrorizm va ekstremizm xavfi bizdan doimiy ogoh va hushyor bo'lishni talab etmoqda.

Ma'lumotlarga ko'ra, bugun dunyoda 500 ga yaqin terrorchilik tashkiloti faoliyat ko'rsatmoqda. Ularning 80 foizi islom niqobi ostida faoliyat yuritadi. Ular qatoriga "ISHID (Iroq va Shom islom davlati)", "Jabhat an-Nusra", "Ansaru ash-Sham" (Suriya), "al-Qoida", "al-Jihod al-Islomiy", "at-Takfir va-l-Hijra" (Misr), "Abu Sayyaf" (Filippin), "Ozod Achex", "Lashkari jihod" (Indoneziya), "Qurolli islomiy harakat" (Jazoir), "Boko haram" (Nigeriya), "Islom jihodi uyushmasi", "O'zbekiston islomiy harakati" Tolibon (Afg'oniston, Pokiston) kabi tashkilotlarni kiritish mumkin.

Bugungi kunda diniy ekstremizm, fundamentalizm va separatizm nafaqat bizning mustaqil davlatimizni, balki jahon jamoatchiligini tashvishga solayotgan hodisalardan biri hisoblanmoqda. Eng achinarlisi ushbu yovuz kuchlar Islom dinini o'ziga bayroq qilib olib fuqorolarni yo'ldan urishmoqda.

Bizga ma'lumki, barcha dinlar insonparvarlik, eng avvalo barkamol, pok, halol bo'lishga chorlaydi shu jumladan, islom poklik xushxulqlilik, hayoli, insofli, mehr-oqibatli vatanparvar bo'lish kabi eng yaxshi fazilatlarni shakllantiradi. Insonni barkamol qilib shakllantirishda tarbiyaning ikkita vazifasini, ya'ni ilmga asoslangan e'tiqod va ibodat qilishni qo'llaydi.

Profilaktika inspektorlari ma'muriy hududda joylardagi diniy vaziyatning barqarorligini ta'minlash, aholining, ayniqsa, yoshlarning diniy ekstremistik g'oyalar ta'siriga tushib qolishining oldini olishda o'quv muassasalari, tashkilot va mahalla yig'inlarida o'tkaziladigan ma'rifiy tadbirlarda yoshlarni ilimli qilib tayyorlashga urg'u

berish, diniy ekstremistik tashkilotlar tarafdorlari tomonidan tarqatilyotgan g'oyalarning aslida islom ta'limotiga zid ekani va siyosiy maqsadlarga yo'naltirilganini aniq ilmiy dalillar bilan isbotlab berish, dolzarb ahamiyatga egadir.

Bu borada xizmat faoliyatini olib borayotgan xodimning kasbiy va aqliy fazilatlarini yuqori bo'lishi talab etiladi. Zero "Shaxsiy tarkibning sifati uning professional darajasi, ahloqiy, ruhiy kayfiyati, jismoniy tayyorgarligi va intizomi bilan belgilanadi.

Profilaktika inspektori o'z hududidagi aholining yashash sharoiti bilan yaqindan tanishishi, iqtisodiy nochor oilalar va boquvchisini yo'qotgan oilalarga yordam berish ishlarni tashkil etishi lozim.

Ayniqsa, profilaktika inspektori diniy ekstremistik oqimlar ta'siriga tushib qolgan shaxslarni doimiy ravishda nazorat ostiga olishlari, ular bilan yakka tartibdagi tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan profilaktika ishlarini olib borishlari lozim.

Profilaktika inspektori ma'muriy hududda vijdon erkinligini ta'minlashga to'sqinlik qiluvchi, ekstremistik g'oyalarni targ'ib qiluvchi, ruhsat bo'lgan ba'zi diniy ta'lim beruvchi, missionerlik bilan shug'ullanuvchi, shuningdek boshqa faoliyati ta'qiqlangan tashkilotlar hamda diniy ekstremistik yo'nalishdagi guruhlar aloqador bo'lgan shaxslar aniqlanganda, ichki ishlar organlari rahbariyatiga, jinoyat qiduruv, uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash xizmatiga xabar berib ular bilan hamkorlik qilib, ularni o'z vaqtida aniqlashi lozim. Chunki, bugungi kunda siyosiy hokimiyatga intilayotgan diniy shiorlarni niqob qilib olgan, aslida, ortida turgan qaysidir yovuz kuchlar qo'lida qo'g'irchoq bo'lgan guruhlar Markaziy Osiyo mamlakatlari xususan, O'zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatga ta'sir o'tkazishga urinmoqda Shu bilan birga XX asr oxiri XXI asr boshlarida ko'zga tashlana boshlagan diniy mutaassiblik, ekstremizm, terrorizm, missionerlik, ommaviy madaniyat kabi tahdidlar davlat va jamiyat xavfsizligi, fuqarolar tinchligiga jiddiy xatar sifatida namayon bo'lmoqda.

Profilaktika inspektorlari tomonidan diniy ekstremistik oqimlar ta'siriga tushib qolgan g'ayriijtimoiy xulq atvorli, huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo'lgan va huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarning hisobini yuritish, tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish orqali ularni ahloqan tuzatish, ularda ijtimoiy hayotga mos xulq-atvor va turmush tarzini shakllantirishi, shuningdek huquqbuzarliklardan jabrlanish ehtimoli yuqori bo'lgan shaxslarni huquqbuzarlikning qurboniga aylanish xavfining mavjudligi, xavf tugdirayotgan huquqbuzarlikning sodir etilishi sabablari va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlar huquqbuzarliklarning sodir etish usullari, shakli va vositalari to'g'risida xabardor qilish ularni ogohlikka, xushyorlikka chaqirish hamda xavfsizlikni taminlash maqsadida amalga oshiriladi.

Profilaktika inspektorlari ushbu vazifalarni amalga oshira borib quyidagilarga alohida e'tibor qaratishlari lozim:

- aholining huquqiy madaniyatini oshirishga va ulardagi diniy bilimlarni o'rganishlari va anglab etishlari;



- ma'muriy hududda faoliyat yuritadigan masjidlar, madrasalar va shunga o'xshash joylarning faoliyatini nazoratga olish;
- uzoq vaqt uyda bo'lmagan va bedarak yo'qolgan shaxslar haqidagi ma'lumotlarni doimiy olib borish;
- noqonuniy yo'llar orqali boylik orttirish, turli missionerlik harakatlar bilan shug'ullanuvchi guruhlar va shaxslarni aniqlash va ularga chek qo'yish chora-tadbirlarini belgilash;
- xizmat hududidagi siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, ma'rifiy va kriminogen vaziyat aholining ruhiyati va kayfiyati haqidagi ma'lumotlarni yig'ish va rahbariyatga muntazam etkazib berish;
- diniy ekstremistik oqimlar va tashkilotlar, turli missionerlik harakatlari haqidagi ma'lumot va axborotlarni yig'ish;
- muqaddam diniy ekstremistik oqimlar va tashkilotlarga a'zo bo'lgan shaxslarni profilaktik hisobga olish va ular bilan doimiy ravishda yakka tartibdagi profilaktik ishlarni amalga oshirish.

Profilaktika inspektorlari bugungi kunda diniy ekstremistik oqim a'zolari bilan ishlash va unga qarshi kurashda har bir kasbiy bilim malaka, ko'nikma va tajribalarga ega bo'lishligi talab etiladi. Buning uchun har bir profilaktika inspektori bilimlarini oshirish maqsadida o'z ustida doimiy ishlashlari lozim. Bunda uning diniy savodxonligi, har qanday savolga to'g'ri javob bera olishi bilan baholanadi. Ayniqsa ushbu jinoyatlarning oldini olishda profilaktika inspektorlarining keng jamoatchilik bilan hamkorlikdagi faoliyatiga alohida e'tibor qaratilishi, shuningdek jinoiy yo'llar orqali katta boylik orttirish giyohvandlik va ichkilikbozlik kabi har qanday huquqbuzarliklarga keskin murosasizlikda profilaktik chora- tadbirlarni amalga oshirishlari maqsadga muvofiqdir.

Terrorizm bilan bog'liq huquqbuzarliklarning profilaktikasini profilaktikaning boshqa turlaridan ajratib turuvchi asosiy jihat, u faqat huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi sub'ektlar tashabbusi va rahbarligi ostida, oldindan ishlab chiqilgan va ichki buyruq bilan tasdiqlangan maxsus rejalar asosida amalga oshiriladigan tadbirlardan iborat ekanligidir.

Bu borada ichki ishlar organlari tizimida muayyan tartib shakllanib ulgurgan. Bunga «Antiterror», «Arsenal», «Avtopatrul», «Yong'in xavfsizligi oyligi», «Nazorat», «Oriyat», «Oyna», «Pasport-viza», «Spitamen», «Tozalash», «Qoradori», «Qidiruv», «Harakat xavfsizligi oyligi» kabi maxsus hamda tezkor profilaktik tadbirlarning ichki ishlar organlari tizimida ichki buyruqlar asosida tashkil etilishi va amalga oshirilib kelinayotganligini misol sifatida keltirishimiz mumkin.

IIVning «Profilaktika (katta) inspektorlari va ichki ishlar organlari faoliyatini tashkil etish bo'yicha Yo'riqnomani tasdiqlash to'g'risida»gi buyrug'ida ichki ishlar idoralari tizimida yuqoridagilardan tashqari yana «Avtobus», «Velosiped», «Diqqat piyoda», «Diqqat bolalar», «Diqqat temir yo'l», «Ijro», «Mast haydovchi», «Turmush»,

«Traktor», «Ustaxona», «G'amxo'rlik», «Xonadon» kabi maxsus hamda tezkor profilaktik tadbirlar ham ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi lozimligi haqida so'z yuritilgan.

Xulosa sifatida, terrorizm bilan bog'liq huquqbuzarliklarning profilaktikasi ko'pincha kriminogen va operativ vaziyat og'ir bo'lgan hududlar hamda huquqbuzarlik va jinoyat sodir etishga moyil shaxslarga yo'naltirilishi, shuningdek alohida ko'rsatma va topshiriqlar asosida amalga oshirilishi bilan profilaktikaning boshqa turlaridan ajralib turadi.

Terrorizm va bilan bog'liq huquqbuzarliklarning profilaktikasini tashkil etish huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar va muassasalarning ayrim turdagi huquqbuzarliklar profilaktikasiga, bu turdagi huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etishga, ayrim toifadagi shaxslarni aniqlash va ularga profilaktik ta'sir ko'rsatishga qaratilgan maxsus tadbirlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishga doir faoliyatidir.

Ichki ishlar organlari kriminogen vaziyat tahlili natijalariga asosan ma'muriy hududda yoki u yerda joylashgan alohida ob'ektda ayrim turdagi huquqbuzarliklarning, ularni sodir etuvchi shaxslar toifalarining ko'payishi, shuningdek jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga, shaxs, jamiyat va davlat manfaatlariga qarshi qaratilgan xavf-xatarlar va tahdidlarning yuzaga kelishi kuchayganda, ushbu turdagi huquqbuzarliklarning profilaktikasi, bu turdagi huquqbuzarliklarning sodir etilish sabablarini va ularga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf etishga, g'ayriijtimoiy xulq-atvorli, huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo'lgan, huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarni aniqlash hamda ularga profilaktik ta'sir ko'rsatish maqsadida huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasi chora-tadbirlarini amalga oshiradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz to'rt yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. <https://president.uz/uz/lists/view/8440>.

2. O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 14 noyabrdagi "Bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risida"gi O'RQ-996-son qonuni.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 21 dekabrda «Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo'g'in sifatida ishlashini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida» PF-209-son Farmoni.

4. Таштемиров А. А. Ахборот технологиялари орқали содир этиладиган жиноятларни фош этишнинг ҳуқуқий ва ташкилий жиҳатлари //World of Science. – 2023. – Т. 6. – №. 6. – С. 169-175.

5. Таштемиров А., Курчибоев Ж. Вояга етмаганлар ҳуқуқбузарлигининг профилактикасида таълим ва тарбиянинг ўрни ва аҳамияти //Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук. – 2023. – Т. 3. – №. 12. – С. 130-135.
6. Таштемиров А. А., Калауов С. А. Йўл ҳаракати хавфсизлиги ривожланиш концепциясининг истиқболлари ва киберхавфсизлигини таъминлаш зарурати //barqarorlik va etakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – Т. 2. – №. 8. – С. 245-250.
7. Таштемиров А. А. и др. Ижтимоий тармоқлар орқали содир этилаётган жиноятларга қарши курашиш чора-тадбирлари //Models and methods for increasing the efficiency of innovative research. – 2023. – Т. 2. – №. 21. – С. 24-31.
8. Таштемиров А. А. и др. Ижтимоий профилактика объекти сифатида алкоголизм таъсиридаги шахслар билан ишлаш фаолиятини такомиллаштириш //So ‘ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi. – 2023. – Т. 6. – №. 12. – С. 552-558.
9. Tashtemirov A., Po‘latov A. Ayollar jinoyatchiligining oldini olish chora-tadbirlari //Иновационные исследования в науке. – 2024. – Т. 3. – №. 1. – С. 75-78.
10. Таштемиров А., Нурматов Н. Айрим хорижий давлатларнинг тезкор қидирув фаолиятида соҳавий ҳамкорликнинг таҳлили //Иновационные исследования в науке. – 2024. – Т. 3. – №. 5. – С. 190-197.
11. Таштемиров А. А. и др. Зўравонлик билан боғлиқ ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тушунчаси ва ўзига хослиги //Innovative achievements in science 2024. – 2025. – Т. 4. – №. 37. – С. 82-90.